



Naqd pul muomalasini tashkil etilishi, naqd puldag'i hisob-kitoblar holati yuzasidan so'rovnama asosida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha ma'lumot.


Joriy yilning iyun oyida O'zbekiston aholisi o'rtasida naqd pul muomalasining tashkil etilishi, naqd puldag'i hisob-kitoblar yuzasidan elektron so'rovnama o'tkazilib, unda **14 259 ta** respondent ishtirok etdi.

Navoiy viloyati va Toshkent shahri aholisi so'rovnomada faol qatnashgan bo'lsa, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarda faollik nisbatan pastroq bo'ldi.

Respondentlarning 52 foizini davlat xizmatchilari, 19 foizini xususiy sektor vakillari, 17 foizini byudjet tashkilotlari xodimlari tashkil qildi.

1. Aholi orasida kundalik to'lovlarini asosan (odatda) naqd pul shaklida amalga oshiruvchilar **15 foizni**, bank kartasi orqali amalga oshiruvchilar **33 foizni** va ikkala shaklda amalga oshiruvchilar **52 foizni** tashkil etdi.







Natijalar kundalik xaridlarini asosan naqd shaklda amalga oshirayotgan aholimiz ulushi **Andijon, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand** viloyatlarida yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

2. Aholining naqd pul shaklidagi bir martalik xaridlari miqdori 100 ming so'mdan – 500 ming so'mgacha **47 foizni**, 100 ming so'mgacha **35 foizni**, 500 ming so'mdan – 1 mln.so'mgacha **12 foizni** va 1 mln.so'mdan yuqорisi **6 foizni** tashkil qildi.

Naqd pulda bir martalik xaridlari miqdori (Respublika bo'yicha)




Naqd pulda bir martalik xaridlari miqdori (Hududlarda)




3. Tovarlar (xizmatlar) xaridini naqd pul shaklida amalga oshirish sababi bo‘yicha respondentlarning **56 foizi** xaridlarni asosan dehqon bozorlarda amalga oshirishlarini, **17 foizi** tez, xavfsiz va nazorat qilish qulay ekanligini, **13 foizi** naqd pulda tovarlar (xizmatlar) arzonroq ekanligini, **7 foizi** to‘lov uchun naqd pul talab qilinishini hamda yana **7 foizi** to‘lov terminali yo‘qligini va ishlamasligini ko‘rsatgan.

Tovarlar (xizmatlar) xaridini naqd pul shaklida amalga oshirish sababi (Respublika bo‘yicha)



Tovarlar (xizmatlar) xaridini naqd pul shaklida amalga oshirish sababi (Hududlarda)




To‘lovlardan naqd pul talab qilish holatlari bo‘yicha **Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent** viloyatlarida yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lsa, to‘lov terminali yo‘qligi yoki ishlamasligi holatlari Toshkent shahrida ko‘p kuzatilayotganligini ko‘rish mumkin.


4. Respondentlar tomonidan muomalada 10 000, 50 000, 5 000, 100 000 va 20 000 so‘m nominaldagi pul belgilariga ehtiyoj nisbatan yuqoriligi ma’lum qilingan.

Mazkur holat aholi naqd puldagi kundalik xaridlar va boshqa xarajatlari uchun asosan ushbu nominaldagi pullardan ko‘proq foydalanayotganligidan dalolat beradi.

**Aholining asosan qaysi nominaldagi banknotlarga ehtiyoji borligi bo‘yicha
(Respublika bo‘yicha)**




**Aholining asosan qaysi nominaldagi banknotlarga ehtiyoji borligi bo‘yicha
(Hududlarda)**



Viloyatlar qirqimida pul belgilarining nominali bo‘yicha ehtiyoj aksariyat holatlarda 2-3 foizli oraliqda farqlansada, 10 000 so‘mlik banknotlarga **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** aholisida, 20 000 so‘mlik banknotlarga **Andijon viloyati** aholisida ehtiyoj nisbatan yuqoriq bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

5. Respondentlarning **25 foizi** bankomatlarda **50 000 so'mlik**, **22 foizi** – **100 000 so'mlik**, **16 foizi** – **10 000 so'mlik**, **14 foizi** – **20 000 so'mlik** banknotlar ko'proq bo'lishiga xohish bildirishgan.

**Bankomatlarda qaysi nominaldag'i banknotlar bo'lishi bo'yicha
(Respublika bo'yicha)**




Bankomatlarda qaysi nominaldag'i banknotlar bo'lishi bo'yicha (Hududlarda)



■ 5 000 so'mlik ■ 10 000 so'mlik ■ 20 000 so'mlik ■ 50 000 so'mlik ■ 100 000 so'mlik ■ 200 000 so'mlik


6. Banknotlar xaqiqiyligini aniqlashda respondentlarning **31 foizi** – himoya ipini, **28 foizi** – bo'rtib turuvchi tasvirlarni, **26 foizi** – turli qiyalik burchagida qaralganda rangini o'zgartiruvchi buyoqlarda bosilgan tasvirlarni hamda **15 foizi** – suv belgisini bilishini va ushbu himoya elementlariga e'tibor berishini ma'lum qilgan.

Banknotlar xaqiqiyligini aniqlashda qaysi himoya elementlarini bilishi va e'tibor berishi (Respublika bo'yicha)



- Suv belgisini
- Himoya ipini
- Turli qiyalik burchagida qaralganda rangini o'zgartiruvchi buyoqlarda bosilgan tasvirlarni
- Bo'rtib turuvchi tasvirlarni

Banknotlar xaqiqiyligini aniqlashda qaysi himoya elementlarini bilishi va e'tibor berishi bo'yicha (Hududlarda)




- Suv belgisini
- Himoya ipini
- Turli qiyalik burchagida qaralganda rangini o'zgartiruvchi buyoqlarda bosilgan tasvirlarni
- Bo'rtib turuvchi tasvirlarni



So'rvnomaga natijalariga ko'ra aholimiz banknotlardagi suv belgisiga ko'p ham e'tibor qaratmasliklarini alohida qayd etgan holda, biroq bo'rtib turuvchi tasvirlarga, turli qiyalik burchagida qaralganda rangini o'zgartiruvchi buyoqlarda bosilgan tasvirlarga e'tibor berishlari aholimiz ancha sinchkovroq ekanligidan dalolat beradi.

7. Kichik nominaldagи pullarga (tangalar, 2000 so'mlik va 5000 so'mlik) respondentlarning **41 foizi** ehtiyoji pastligini, **31 foizi** ehtiyoji yo'qligini va **28 foizi** ehtiyoji yuqoriliginini bildirdi.

Kichik nominaldagi pul belgilariga ehtiyoji bo'yicha (Respublika bo'yicha)




Kichik nominaldagi pul belgilariga ehtiyoji bo'yicha (Hududlarda)




8. Respondentlar tomonidan do'konlarda naqd pulda tovarlar xarid qilganida **65 foizi** qaytim pullarini olishini, **17 foizi** ba'zan, qaytim pullarini o'rniiga arzon tovarlar (*gugurt, saqich, qurt va hakazo*) berishini, **14 foizi** doim, qaytim pullarini o'rniiga arzon tovarlar (*gugurt, saqich, qurt va hakazo*) berishini va **4 foizi** qaytim pullarini olmasliklarini, chunki mayda pullar yo'qligini bildirishgan.

Naqd pulda tovar xarid qilinganda qaytim pullarini olish holati (Respublika bo'yicha)




Naqd pulda tovar xarid qilinganda qaytim pullarini olish holati (Hududlarda)




9. Ish xaqi to'lovlaringin 87 foizni bank kartasi orqali, 7 foizni ham naqd pul shaklida, ham bank kartasi orqali hamda 6 foizni naqd pul shaklida olayotganligini bildirishgan.

Ish xaqi to'lovlaringin qaysi shaklda olinishi holati (Respublika bo'yicha)




Ish xaqi to‘lovlарining qaysi shaklda olinishi holati (Hududlarda)




10. Bank kartalaridan naqd pul yechib olish holati o‘rganilganda bir oyda o‘rtacha 1-2 marotaba yechib oladiganlar **42 foizni**, 3-4 marotaba yechadiganlar **35 foizni** hamda 5 marotaba va undan ko‘p yechadiganlar **23 foizni** tashkil etmoqda.

Bank kartadan bir oyda o‘rtacha naqd pul yechib olish holati (Respublika bo‘yicha)




Bank kartadan bir oyda o‘rtacha naqd pul yechib olish holati (Hududlarda)




11. Aholining **62 foizi** bankomatlar bo‘yicha shikoyati yo‘qligini, **18 foizi** kam hollarda uzilishlar kuzatilishi, lekin e’tiroz qiladigan darajada emasligini va qolgan **20 foizi** naqd pullar tez tugab qolishi, tez-tez ishlamay qolishi hamda kerakli nominaldagи banknotlar mavjud emasligini bildirishgan.

Bankomatlar bo‘yicha aholi fikrlari (Respublika bo‘yicha)




Bankomatlar bo‘yicha aholi fikrlari (Hududlarda)




12. Aholi jamg‘armalarini **23 foizini** o‘zlarida naqd pul shaklida va shuncha qismi bank kartalarida, shuningdek **20 foizi** banklardagi omonat hisobvaraqlarda saqlashlarini bildirishgan bo‘lsa, **34 foizi** jamg‘armalari mavjud emas ekanliklarini ma'lum qilishgan.

Jamg‘armani saqlash holati (Respublika bo‘yicha)




Jamg‘armani saqlash holati (Hududlarda)




■ O‘zimda, naqd pul shaklida ■ Bank kartasida ■ Bankda, omonat shaklida ■ Jamg‘armam mavjud emas

13. Aholining **36** foizi omonat mablag‘larini bankka borgan holda naqd pul shaklida, **29** foizi bank kartasidan hamda **35** foizi bankka bormasdan, mobil ilovalar orqali shakllantirmoqda.

Omonatlarni shakllantirish holati (Respublika bo‘yicha)




Omonatlarni shakllantirish holati (Hududlarda)




14. Aholining **49** foizi banklarning mobil ilovalari orqali shakllantiriladigan omonatlarini bilishini, foydalanishini, **37** foizi bilishini, lekin foydalanmasligini, **10** foizi bilmasligini hamda **4** foizi bilishini, lekin mobil ilovalar orqali omonat ochishni bilmasligini ma'lum qilishgan.

Respublika bo'yicha



Aholi banklarning mobil ilovalari orqali shakllantiriladigan omonatlarini bilishi va foydalanishi holatinasizmi (Hududlarda)



15. Bugungi kunda aholining **88 foizi** kommunal to‘lovlarni mobil ilovalar orqali to‘lashmoqda.

